



O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH
JARAYONLARI VA MINTAQAVIY SAVDONING KELAJAGI

Umirzoqova Nargiza O'ktam qizi

Bojxona instituti YuP 124-guruh kursanti,

e-mail: umirzoqova04007@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkiloti (JST)ga qo'shilish jarayonlari, uning bosqichlari va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lish yo'lida amalga oshirayotgan huquqiy, institutsional va iqtisodiy islohotlari, xalqaro muzokaralar jarayoni hamda ularning natijalari yoritilgan. Shuningdek, JSTga a'zolikning milliy iqtisodiyotga, tashqi savdoga va raqobatbardoshlikka ta'siri ilmiy asosda ochib berilgan. Maqolada bojxona tizimidagi transformatsiyalar, savdo to'siqlarini kamaytirish, intellektual mulkni himoya qilish hamda sanitariya va texnik tartibga solish sohasidagi islohotlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Jahon savdo tashkiloti (JST), xalqaro savdo, iqtisodiy integratsiya, bojxona islohotlari, tashqi savdo siyosati, savdo muzokaralari, raqobatbardoshlik, intellektual mulk, sanitariya va fitosanitariya choralari, texnik to'siqlar, global iqtisodiyot.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются процессы присоединения Республики Узбекистан к Всемирная торговая организация (ВТО), их этапы и экономическое значение. В частности, проанализированы правовые, институциональные и экономические реформы, реализуемые в стране на пути вступления в ВТО, а также ход международных переговоров и их результаты. Кроме того, раскрыто влияние членства в ВТО на национальную экономику, внешнюю торговлю и конкурентоспособность страны. Особое внимание уделено трансформации таможенной системы, снижению торговых барьеров, защите интеллектуальной собственности, а также реформам в области санитарных и фитосанитарных мер и технического регулирования.*

Ключевые слова: *ВТО, международная торговля, экономическая интеграция, таможенные реформы, внешнеторговая политика, торговые переговоры, конкурентоспособность, интеллектуальная собственность, санитарные и фитосанитарные меры, технические барьеры.*

Abstract: *This article examines the process of the Republic of Uzbekistan's accession to the World Trade Organization (WTO), its stages, and its economic significance. In particular, the study analyzes the legal, institutional, and economic reforms implemented by the country in the course of joining the WTO, as well as the progress of international negotiations and their outcomes. Furthermore, the impact of WTO membership on the national economy, foreign trade, and competitiveness is explored. Special attention is given to the transformation of the customs system, the reduction of trade barriers, the protection*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



of intellectual property rights, and reforms in the areas of sanitary and phytosanitary measures and technical regulations.

Keywords: *WTO, international trade, economic integration, customs reforms, foreign trade policy, trade negotiations, competitiveness, intellectual property, sanitary and phytosanitary measures, technical barriers.*

Jahon savdo tashkiloti (JST) — bugungi kunda dunyodagi eng yirik tashkilot. Ushbu iqtisodiy tashkilotga 164 mamlakat a'zo va ular hissasiga global savdo va jahon yalpi ichki mahsulotining 95 foizi to'g'ri keladi. O'zbekiston tovar aylanmasining 97 foizi ushbu davlatlarning birgalikdagi ulushini tashkil etadi. JST 1947-yilda tuzilgan xalqaro bitim — GATTning davomchisi hisoblanadi. Unda tashkilotga a'zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan. Uning asosiy vazifasi global iqtisodiyotni kuzatish orqali xalqaro savdo izchilligi va shaffofligini tartibga solish, a'zo mamlakatlar barqaror taraqqiyotini ta'minlash va insonlar turmushini yaxshilashdan iborat. Bu O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar maqsadiga to'liq mos keladi.

Tashkilotda qarorlar ishtirokchi mamlakatlar yordamida konsensus — umumiy ovoz berish orqali qabul qilinadi. Qarorlar qoidaga ko'ra, ikki yilda bir marta chaqiriladigan Vazirlar konferensiyasi tomonidan qabul qilinadi. Kundalik amalga oshirilayotgan ishlarga mas'ul bo'lgan Bosh kengash yig'ilishlarini tashkilotning ma'muriy qarorgohi joylashgan Jeneva shahrida bir yilda bir marta o'tkazadi. Yig'ilishlarda tashkilotga a'zo mamlakatlar vakillari, elchilar ishtirok etadi.

Bosh kengash qoshida nizolarni hal etish va savdo siyosati tahlillari bilan shug'ullanadigan organlar bor (jami 650 xodim ishlaydi). Shuningdek, uning tarkibida savdo va rivojlanish, savdo balansi borasida cheklovlar o'rnatish hamda byudjet, moliya va ma'muriy masalalar bilan shug'ullanadigan uchta qo'mita faoliyat yuritadi. Bosh kengashdan quyi pog'onada tovarlar, xizmatlar savdosi va intellektual mulk huquqi bo'yicha kengashlar faoliyat yuritadi.

Tashkilotning yana bir ustuvor yo'nalishi shundaki, unga 3 tasnif asosida, ya'ni rivojlangan, rivojlanayotgan va eng kam rivojlangan davlatlar maqomida qo'shilish mumkin. Yurtimiz esa, rivojlanayotgan davlat maqomida qo'shilishga intilyapti va bu yo'lda qator imkoniyatlarga ega bo'ladi, masalan, o'tish davriga uzoqroq vaqt beriladi.

Bojxona instituti dotsenti To'lqin Pardayevning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston JST ga a'zo bo'lish uchun 1994-yilda ariza bergan va ishchi guruhning 3 ta uchrashuvida qatnashgan, ammo ayrim sabablarga ko'ra bu jarayon to'xtab qolgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2017-yildan boshlab JST ga qo'shilish bo'yicha harakatlar juda tez sur'atlarda jadallashdi. 2019-yilning boshida ishchi guruh faoliyati hukumat tomonidan jonlantirilgan bo'lsa, 2020-yilda a'zo bo'lish bo'yicha qo'shma ishchi guruh yig'ilishlari qayta tiklandi. 2022-yilning 21-22-iyun kunlari Jeneva shahrida bo'lib o'tgan ishchi guruhining beshinchi yig'ilishida a'zo davlatlarning 60 dan ortiq delegatsiyalari, xalqaro tashkilotlar vakillari va xorijiy ekspertlar ishtirok etdi. Ushbu



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



yig'ilish 15 yillik tanaffusdan so'ng o'tkazilgan ilk rasmiy uchrashuv bo'lib, O'zbekistonning tashkilotga kirish istagi qat'iy ekanligini xalqaro hamjamiyatga yaqqol ko'rsatdi. Ushbu uchrashuv O'zbekistonning JST ga qo'shilish jarayonida muhim burilish yasagan, ya'ni aynan shu yig'ilishdan so'ng ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar jadvali aniqlashtirilib, jarayon "texnik" bosqichdan faol "siyosiy-iqtisodiy" bosqichga o'tgan. So'zga chiqqan barcha 25 a'zo davlat, jumladan, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Rossiya, Turkiya, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqalar bir ovozdan O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishini to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirgan [1].

2023-yil 14-15 mart kunlari o'tkazilgan Ishchi guruh oltinchi yig'ilishining O'zbekiston delegatsiyasiga o'sha paytdagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Jamshid Xodjajev boshchilik qilgan. Ushbu yig'ilishda JST ga a'zo 40 dan ortiq davlat vakillari qatnashgan. Mamlakatimiz savdo rejimining barcha jihatlariga taalluqli 10 dan ziyod hujjat ko'rib chiqilgan. Bir qator yetakchi davlatlar O'zbekistonning qonunchilikni isloh qilishdagi ijobiy o'zgarishlarini e'tirof etishgan.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining JST bilan hamkorlik boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Amirbek Muhamedovning ma'lum qilishicha, ushbu tashkilotga a'zo bo'lish uzoq vaqt talab qiladigan murakkab jarayon. Har bir davlatning bu tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni o'rtacha 8 — 10, ba'zi davlatlar uchun esa 10 — 15 yilni tashkil etadi. Masalan, tashkilotga kirish uchun Qozog'istonga 13 yil, Rossiyaga 19 yil kerak bo'lgan. Chunki, tashkilotga barcha a'zo davlatlarning roziligi olinganidan keyin qo'shilish mumkin.

Yurtboshimiz jarayonni yanada jadallashtirish maqsadida 2023-yil 6-iyunda "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 181-sonli qarorini qabul qildi. Hujjat bilan, JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiyaning yangilangan tarkibi tasdiqlandi hamda Prezident Administratsiyasida prezidentning Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimi tashkil etildi. Maxsus vakilning asosiy vazifalaridan biri JSTga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish, mas'ul vazirlik va idoralar faoliyatining natijadorligini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Qarorga ko'ra, Adliya vazirligiga ma'muriy islohotlar doirasida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish funksiyasi yuklandi. Shuningdek, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi markaziy apparatida JST bilan ishlash va savdo muzokaralari departamenti tashkil etildi. O'zbekistonning Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonasida JST masalalari bo'yicha birinchi kotib lavozimi kiritildi [2].

Prezidentning JST bo'yicha vakili Azizbek Urunovning 2026-yil 6-fevral kuni Spot'ga bergan intervyusida O'zbekistonning JST ga qo'shilish jarayoni to'g'risida ma'lumot berdi. O'z intervyusida Azizbek Urunov JST ga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi haqidagi savolga quyidagicha javob berdi: JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun qanday ahamiyatga ega? Xalqaro savdoda yirik davlatlar va katta





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



iqtisodiyotlar bor, biz esa hali yirik iqtisodiyot emasmiz. Shu jihatdan, **JST biz uchun o'ziga xos kafolat vazifasini bajaradi.** Tashkilotga a'zo bo'lgach, uning qoidalari va majburiyatlariga barcha davlatlar — katta, kichik yoki o'rta bo'lishidan qat'i nazar — birdek rioya qilishi shart bo'ladi.

2025-yil yakunlariga ko'ra, tashkilotga a'zo 34 davlatdan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralar yakunlangan, faqat Tayvan bilan kelishuv qolgan. Kelishuvga erishilgan davlatlar orasida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Kanada va boshqa davlatlar bor. Bundan tashqari, 40 dan ortiq ikki tomonlama muzokaralar va ishchi guruhning ko'plab yig'ilishlarini o'tkazdi, ularda 200 dan ortiq masalalar ko'rib chiqildi. Asosiy savdo hamkorlarimiz hisoblangan Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Kanada, Avstraliya va boshqa davlatlar bilan kelishuvlar imzolangan. Mana shu jarayon davomida qonunchiligimizda ham sezilarli islohotlar qilindi [3]. Jumladan, JST bilan bog'liq 30 ta huquqiy hujjat qabul qilindi: 4 ta qonun, 8 ta prezident farmoni va qarori, 12 ta Vazirlar Mahkamasi qarori va 6 ta idoraviy me'yoriy hujjatlar. Shuningdek, yana 29 ta huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanmoqda. Bojxona nazorati, eksport bojlari, savdoni himoya qilish choralari, intellektual mulkni himoya qilish, texnik tartibga solish, shuningdek, savdodagi sanitariya va fitosanitariya choralari va texnik to'siqlar sohasidagi "kompleks islohotlar" shular jumlasidan [4].

Sanitariya, fitosanitariya choralari hamda savdodagi texnik to'siqlarni tartibga soluvchi islohotlar o'zbek mahsulotlarining "global pasporti"ga aylanadi. Bu hujjatlar qabul qilingach, mahalliy eksportyorlarimiz mahsuloti xalqaro standartlar asosida tekshiriladi. Natijada, o'zbek gilosi yoki to'qimachilik mahsuloti Yevropa va AQSH bojxonalarida "sifatsiz" degan shubha bilan to'xtab qolmaydi. Bu esa milliy brendlarimizning dunyo bozoridagi obro'sini keskin oshiradi.

29 ta hujjatning muhim qismi intellektual mulkni himoya qilishga qaratilgan. Bunga yaqqol misol qilib Prezidentning 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 221-sonli qarorini keltirishimiz mumkin [5].

JSTga a'zo bo'lish jarayonida O'zbekiston Bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar "shovqinsiz" lekin tub burilish yasovchi xarakterga ega. Asosiy e'tibor nazoratni kuchaytirishga emas, balki uni intellektual va shaffof qilishga qaratilgan. Shu sababli barcha jarayonlarni raqamli bitta nuqtada birlashtiruvchi "Yagona darcha" tizimi, bojxona nazorati samaradorligini oshirish maqsadida xavfni boshqarish tizimi hamda milliy mahsulotlarimizning tannarxini pasaytirishga va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi bir qator zamonaviy tartib-taomillar joriy qilinmoqda [6]. Umuman olganda, ushbu kompleks islohotlar mamlakatda erkin va adolatli savdo muhitini shakllantirishga, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga hamda global iqtisodiyotga integratsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning JST ga a'zo bo'lish jarayoni faqatgina huquqiy hujjatlarni qabul qilish bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Jarayonning yanada tezroq muvaffaqiyatga erishishini



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ta’minlash maqsadida yurtimizda kadrlar salohiyatini oshirish, tadbirkorlarni xabardor qilish, raqamli infratuzilmani kengaytirish kabi jihatlar faoliyatiga ham e’tibor berish lozim.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuvi — bu shunchaki tashqi iqtisodiy tanlov emas, balki mamlakatni modernizatsiya qilish yo‘lidagi strategik zaruriyatdir. 2026-yilga kelib erishilgan natijalar, xususan, 33 ta davlat bilan muzokaralarning yakunlangani va qonunchilikdagi “kompleks islohotlar” O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga ochiqqligini anglatadi.

JST ga a’zolik milliy iqtisodiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shadi. Bu yo‘lda amalga oshirilayotgan bojxona transformatsiyasi, intellektual mulk himoyasi va savdo to‘siqlarining bartaraf etilishi nafaqat tadbirkorlar, balki oddiy iste’molchilar uchun ham sifatli mahsulot assortimenti va adolatli narxlar kafolatidir. Xalqaro hamkorlik yurtimizni Markaziy Osiyoning yirik savdo va logistika markaziga aylantirishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “JST: O‘zbekistonga nima beradi?”, yuz.uz nashri, 19.04.2023 y. <https://yuz.uz/uz/news/jst-ozbekistonga-nima-beradi>
2. “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — <https://lex.uz/>
3. **Azizbek Urunov intervyusi**, Spot.uz nashri, 06.02.2026 y, <https://www.spot.uz/oz/2026/02/06/wto-urunov/>
4. “Bojxona, texnik tartibga solish va eksport bojlari: O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lish uchun 29 ta yangi huquqiy hujjat tayyorlamoqda”, Spot.uz nashri, 03.01.2026 y. https://www.wto.org/english/tratop_e/tbt_e/tbt_e.htm
5. “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — <https://lex.uz/>
6. **O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi** rasmiy sayti ma’lumotlari. customs.uz